



**QARSHI-MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**

**ISSIQLIK ENERGETIKASI KAFEDRASI**



**YO‘NALISHGA KIRISH**

**fanidan**

**ELEKTRON O‘QUV USLUBIY MAJMUA**

**O'ZBEKISTO RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**ENERGETIKA FAKUL'TETI**

**ISIQLIK ENERGETIKASI KAFEDRASI**

**YO'NALISHGA KIRISH fanidan  
tayyorlangan**

**ELEKTRON O'QUV USLUBIY MAJMUASI**

Bilim sohasi:	700 000 -	Muhandislik ishlov berish qurilish sohalari
Ta'lim sohasi:	710 000 -	Muhandislik ishi
Ta'lim yo'nalishi	60710500	Energetika (Issiqlik energetikasi)

**Qarshi-2022 yil**

Ushbu majmua O'zbekiston Respublikasi Oily va O'rta maxsus ta'lim vazirligi *Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Uslubiy Kengashining 2022 yil. 28.06 dagi №11 sonli yig'ilishida tasdiqlangan fanning o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.*

Tuzuvchi: G'.Yu.Ro'ziqulov

Taqrizchilar: QarMII "Issiqlik energetikasi"  
kafedrası t.f.f.d., dots. U.H. Ibragimov.

QarDU "Muqobil va qayta tiklanuvchi  
enrgiya manbalari" kafedrası mudiri  
t.f.n., dots. A.A. Vardiyashvili

Ushbu elektron o'quv uslubiy majmua institut Uslubiy Kengashning 2022 yil \_\_. \_\_ dagi №\_\_ sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

## MUNDARIJA.

<b>I. O'quv materiallari.....</b>	
Ma'ruzalar matni.....	
Amaliy mashg'ulot uchun o'quv uslubiy qo'llanma.....	
Laboratoriya mashg'uloti uchun o'quv uslubiy qo'llanama.....	
<b>II. Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari.....</b>	
Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari mavzulari.....	
Mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma.....	
<b>III. Glossariy.....</b>	
<b>IV. Ilovalar.....</b>	
Fanning o'quv dasturi.....	
Fanning sillabusi.....	
Tarqatma materiallar.....	
Baholash mezonlari.....	
Boshqa materiallar.....	

# I. O'quv materiallari

## KIRISH

Energetika kishilik jamiyatining faoliyati sferasi bo'lib-muhim bir tizimni tashkil etadi. Bu tizim o'rab turgan muhitni bir tizimi bo'lib, har xil xalq xo'jaligi tarmoqlarining bir qismi deb - shunday katta yagona (tabiiy) va sun'iy (inson tomonidan yaratilgan) tizimlar yig'indisi bo'lib, ularning elektr energiya ishlab chiqarishi, o'zgartirish (bir qiymatdan yoki boshqa bir qiymatga almashtirish) taqsimlanish, issiqlik energiyasini ishlab chiqishi va is'temolchilarga etkazib berishi hamda xalq xo'jaligida energetikaning barcha turdagi resurslaridan foydalanish tizimlari tushiniladi. Energetika kishilik hayotida muhim o'rin to'tadi. Uning taraqqiyoti darajasi jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari va ilmiy-texnik progressda (taraqqiyotda) namoyon bo'ladi.

Energetika sohasining rivojlanishida va malakali energetik-muxandislar tayyorlashda akademiklar: X.F.Fozilov, M.Z.Xamudxonov, T.X.Nosirov, R.A.Zoxidov, Q.R.Allayev, professorlar: R.R.Avezov, N.R.Avezova, B.U.Umarov O.O.Xoshimov, T.M. Kodirov, X.G. Karimov, N.X.Bozorov, M.Muxammadiev, D.N.Muxiddinov, M.I.Ibodullaev, A.B.Vardyashvili, G'.N.Uzoqov larning xizmatlari beqiyosdir.

Hozirda va kelgusida oliy o'quv yurtlarining roli ortmoqda va ortib boradi. Chunki ular energetikaning barcha tarmoqlari uchun zamon talablariga mos mutaxassislar, ilmiy-tadqiqot institutlari uchun mutaxassis tayyorlash bilan birga, ilm-fanning hamma jabhalarida yirik tadqiqotlarni amalga oshirmoqdalar. Ushbu sohadagi ijodiy-ilmiy ishlarni har tomonlama sermahsul qilish uchun talabalarni oliy ta'lim muassasasiga odatlantirish, oliy ta'lim muassasasi mezonlarini o'zlashtirib va uning sirlarini mukammal bilib olish kabilarni to'laroq amalga oshirish maqsadida «Yo'nalishga kirish» fani o'quv jarayoniga joriy etilgan. Haqiqatdan ham o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, mutaxassislik yo'nalishi haqida tasavvur uyg'otish, bilim va ko'nikma hosil qilish, vaqtdan unumli foydalanish, mustaqil ishlashga o'rganish, kitob o'qish usullaridan samarali

foydalanish, aqliy mehnat gigiyenasi va madaniyati, ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishni bilib olish, o'qitish jarayonini asosiy shakllarini nimalar tashkil etishi, o'quv mehnati va turmush nafosati, materiallarni o'zlashtirish mezonlari, talabalar bilimni baholashda reyting tizimi va test usullarining mazmuni kabi muhim masalalar «Yo'nalishga kirish» fani orqali o'rganiladi.

“Yo'nalishga kirish” fanning maqsadi 5310100 - “Issiqlik energetikasi” yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda tanalagan yo'nalish bo'yicha boshlang'ich tushunchalarni shakllantirish, kelajakdagi mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ish jarayonlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish va issiqlik energetik qurilmalarga xizmat ko'rsatuvchi muhandis-energetik sifatida unga qo'yiladigan talabalardan kelib chiqqan holda o'quv me'yoriy hujjatlar asosida (DTS, o'quv reja va fan dasturlari va unga asosan tayyorlanadigan hujjatlar) o'qitilishi, o'rganishi lozim bo'lgan fanlar, o'quv va malakaviy amaliyotlar bilan tanishish hamda energiya, energetika va issiqlik energetik qurilmalarning rivojlanish tarixi, energiya va energetikaning kishilik jamiyati rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati, bugungi kunda issiqlik energetikasida qo'llanib kelinayotgan issiqlik energetik qurilmalarning tuzilishi va ish jarayonlari to'g'risida boshlang'ich, umumiy tushunchalarni berish orqali o'zlari tanlagan kasblariga qiziqish uyg'otishdan iborat.

Fanning vazifasi—yuqorida qo'yilgan maqsadni amalga oshirish o'quv yillari davomiyligida, muhandis-energetik mutaxassisi DTS talablaridan kelib chiqqan holda egallashi lozim bo'lgan, bevosita mutaxassisligiga oid fanlarni puxta o'zlashtirishi evazidan etarli darajada bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishini ta'minlash hisoblanadi.

Bu talablarni bajarishning dastlabki, etarli va zaruriy sharti bu umumta'lim fanlaridan etarlicha bilim zahirasiga ega bo'lishi hamda oliy ta'lim bazasida o'qitilayotgan nazariy fanlar hamda tashkil etiladigan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari hamda malakaviy amaliyotlar bilan uzviy bog'lab puxtaligini ta'minlashi orqali erishiladi.